

**O'ZBEK MA'RIFATPARVAR AYOLLARINING MA'RIFATLI JAMIYAT
QURISH G'OYALARI (ANBAR OTIN, DILSHODI BARNO, UVAYSIY
MISOLIDA)**

Ruziyeva Dilnoza Muxtorovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston o'lkasi general – gubernatorlaridan biri A. N. Kuropatkinning o'z kundaliklarida, biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va sivilizatsiyasidan chetda tutib turdik, degan so'zlari yaqqol anglatadi. Ushbu maqolada o'zbek ma'rifatparvar ayollarining ma'rifatli jamiyat qurish g'oyalari xususida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: ma'rifatparvarlik; jamiyat; jadid; ziyoli; taraqqiyot.

Lekin, ayni paytda, rus taraqqiyparvar ziyolilari orqali rus va jahon ilm – fani va madaniyati ham chor ma'muriyati to'siqlari orasidan sizib kirar edi. Shu ijobiy ta'sir asta – sekinlik bilan mazlum Turkistonda yangi uyg'onish davrini boshlab berdi. Mahalliy ziyolilar orasida o'z xalqini ozod ko'rishga va jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga intilish natijasida bu uyg'onish Ovrupo ma'rifatchiliga nisbatan juda shiddatkor hamda miqyosli bo'ldi. Shuningdek, o'rta asrlar o'rtaga tashlagan ma'rifatparvarlik g'oyalari uchun ham endilikda amaliy shakllarda yangicha - ma'rifatchilik tarzida namoyon bo'lismi imkoniyati yaratildi. Zero o'sha g'oyalarni yangilangan shakllarda amalga oshira oladigan faoliyatli ziyolilar vujudga kelgan edi. Ularni keyinchalik jadidlar deb atay boshladilar. Ma'rifatchilik asosan uch soha orqali tezkor tarzda taraqqiy topib bordi. Bular:

- maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash);
- san'at (badiiy adabiyot, teatr);
- va matbuot.

Pirovard maqsad millatni, bir tomonidan, ilmli – ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomonidan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida o'zligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston ma'rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalgalashadi.

oshirish yo'lida katta ishlar qilindi. Turkiston ma'rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy g'oyalar, asosan, badiiy va didaktik shakllarda o'z aksini topdi. Ayni paytda an'anaviy-axloqiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, uadolatni ham podsho – hukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Agar hukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat hayotining hamma sohasi uchunadolatni mezon qilib olsa, san'atning gullab yashnashiga yo'l ochib bersa – xalq hayoti farovon bo'ladi, fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi. U, hukmdor donishmandlik fazilatiga, albatta, ega bo'lishi lozim, davlatning mohiyatini aql belgilaydi, degan xulosaga keladi: oqilona boshqarilgan mamlakat aholisigina ma'rifatli va yuksak axloq egalari bo'la oladi.

Dilshod – Barno asarlaridagi axloqiy muammolar taraqqiyparvarlik g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Dilshod Barnoning shogirdi Anbar otindir. Uning Axloqiy qarashlari lirik – falsafiy she'rlarida va «Qarolar falsafasi» risolasida o'z aksini topgan. Anbar otin ham, inson axloqiy darajasini aql, ilm – ma'rifat bilan bog'laydi va ijtimoiy taraqqiyotga aqliy hamda axloqiy yuksaklik orqali erishish mumkin, degan aqidaga amal qiladi. Uning asarlarida axloqsizlik botqog'iga botib borayotgan jamiyatga nafratni, shariyat va tariqat namoyondalari aynib ketganligi, boylardan insof ko'tarilganligi haqidagi fikrlar mardona ilgari suriladi. «Muqimiya», «Mingboshi kal Omin xajviy», «Olimjon xoji ta'rifi» kabi she'rlarida ana shu yo'nalishini ko'rish mumqin. Tanqidiy – badiiy shakldagi bu yo'nalish «Qarolar falsafasi» risolasida falsafiy – taxliliy shakl qasf etadi. «Qarolar falsafasi» asari asosan bir – birining ziddi bo'lmish ikki muammamo – ijtimoiy adolat va ijtimoiy zulm tushunchalariga bag'ishlangan. Risola ko'p o'rinnlarda falsafiy - majoziy talqinlardan iborat. Chunonchi, risola davomida ayniqsa, uning birinchi faslida qora va oq ranglarining majoziy hamda botiniy mohiyati o'ziga xos ta'sirida ifodalanadi. Qora mehnati tufayli dunyon yashnatayotgan insonlar qalbining oqligi, oq tana – yu oq bilak kimsalar qilayotgan ishlarining qoraligi tanqidlanadi va ular shu orqali axloqiy mazmun kasb etadi. Anbar otin shunday deb yozadi: «Ul qaro halq oftob so'zanida mehnat qilib, o'zлari har qancha kuyganlari holda, xosillarini hamtovoqlariga tufxa qilurlar. Misol andoqdurki, qozon bovujud qoradur, o'zi o'tda kuyib qora g'ulgoni holda ovqat pishirib odamlarni to'ydirur.

Ul zamonda odam axloqiy ul darajada eturki, xurusi mijoz gala xotunlik rusumini tark etar va har er bitta xotin ila farogatvor kun kechirgay ...

Ul vaqt qizlar ilmi dunyoviy taxsiliga tuyassar bulur, urfon taxtida qaror topib, ellar va urug'lar safiga doxil bo'lurlar, alar xayratga va mehnatda erlarga hamfo va yvar bulub, obru topib, xurmat va iqromga sazovor bulurlar». Anbar otin adolatli podsho muammosiga alohida to'xtalib, o'sha davr uchun nixoyatda orginal, kutilmagan va xozirgi zamonda ham ahamiyatini yo'qotmagan fikrlarni bildiradi. U, dastavval «urus keldi» deganda hamma ma'rifat axli, endi halqning, ijtimoiy – iqtisodiy va ma'naviy xayoti yaxshi tomonga o'zgaradi deb kutganini, lekin bu ishonch oqlanmaganini, aksincha, «urus podshox musulmonlarga zarrachayinki xalovat bermaganini» aytadi. Ba'zi bir ruslar xukmronligini oqlaganlarga qarshi shunday deydi: «Agar urus shoxi darhaqiqat odil bo'lsa, va aning xoxishi qaram halqlar ham urus misoli ozod bo'lsun va barcha xaloyiq urus birla barobar bulub ruhgor kechirsun desa, amorat va xukmronlik qonunini din qonunlaridan mustasno keltursin». Boshqa bir o'rinda faylasuf – shoira: «Davlat ishini dini islomdin yiroq tuting...», degan fikrni bildiradi. Qarshi birlashmoq, qo'lda qurol bilan chiqmoq. Bu yo'lni shoira shunday ifodalaydi: «albatta, aqlu – idrok va jamoatga taqya qilib, barcha shayx sufiylardan yiroq va barcha tarsu vaxmdin emin bo'lib, zolimlarga qarshi muboriza qilmoq, yakkalikdan xazar qilmoq, bu tadbirlar ila zulmni nobud etib, zulmaini bartaraf qilmoq zarurdir». Albatta, Anbar otinning barcha axloqiy qarashlarini mutloq to'g'ri deb qabul qilish nojoiz. Chunonchi, u sufiylik tariqatlarining hammasini mohiyatan reakstion, degan fikrni ilgari suradi va sufiylarni mustamlakachi amaldorlar ra'yiga qaraydigan rasmiy din peshvolari bilan chalkashtirib yuboradi. Lekin, shunga qaramasdan, Anbar otinning asarlari, ayniqsa, «Qarolar falsafasi» risolasi xozirgi kunda ham ijtimoiy – axloqiy ahamiyatini yo'qotgan emas. Bundan tashqari, Anbar otin shoira va faylasuf olima sifatida ham, shaxs sifatida ham kishini xayratga soladigan darajada matonatli, pokiza inson, yuksak axloq egasi bo'lган. U umrini Turkiston xalqlari ma'naviyatini yuksaltirishga bag'ishladi, nogiron bo'lishiga qaramay, adolatning paxlavoni bo'lib kurashdi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimizga bu tom ma'nodagi qaxramon ayol orzu qilgan kunlar keldi, Anbar otinning olimona va shoirona bashorati amalga oshdi. Shoira adabiyotda taraqqiy parvar namoyandalarning qarashlari asosida maydonga kelgan inson taqdiri, shaxs erki va ma'rifatparvarlik g'oyalarida latif va dilkash asarlar yaratgan, asarlarida insonni e'zozlash, odamlarni tabiat va xayot nozne'matlaridan bahramand bo'lishga undash, do'stlik, vafo va sadoqat haqidagi ulug'vor niyatlarini Qur'on oyatlari, hadislar va tasavvufiy talqinlar bilan asoslagan

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st June, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

holda ijodiy barkamollikka erishgan. Uning she'rlarida tariqatning talab va qoidalariga taalluqli bo'lgan talqinlar ko'p uchraydi: Fano mardumlarini sirridin hech kimsa yo'q ogoh, Qabih guftor mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pulatova D. "Axloqshunoslik". Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 1995.
2. Umarov. E. "Nafosatshunoslik" Toshkent. 1995.
3. Ibrohimova. E. Uvaysiy. Toshkent. 1963.
4. Jalolov. T. O'zbek shoiralari. Toshkent. 1970.
5. Haqqulov. I. Uvaysiy she'riyati. Toshkent. 1982.